



Илмий – амалий конференция
материаллари

**ИЛМ - ФАН
ВА
ИННОВАЦИЯ**

Қ а р ш и

quyilma suv ombori qurib bitkazildi va foydalanishga topshirildi. Qarshi bosh kanaliga har sekundda 200 m³ suvni 132 m balandlikka ko'tarib beradigan nasos stansiyalari qurildi.

1957-1987-yillarda suv sig'imiga ko'ra turlicha bo'lgan 14 ta suv omborining qurib bitkazilishi va foydalanishga topshirilishi natijasida Qashqadaryo havzasining yuqori va o'rta qismlarining suv ta'minotini tubdan yaxshilash imkonini berdi.

Qashqadaryo havzasida insonning turli xildagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan landshaftlarning o'zgarishi va antropogen landshaftlarning yuzaga kelishi sodir bo'lgan. Bu yerda tubdan o'zgartirilgan texnogen landshaftlar, seliteb landshaftlar, suvli (akval) landshaftlar vujudga kelgan. Ammo ularning maydoni agrolandschaftlar bilan band bo'lgan landshaftlarning maydoniga nisbatan ancha kam va ularning aksariyat katta qismini yirik masshtabli xaritalardagina ajratish mumkin.

Qoratapa, Chaqilkalon va Hisor tog'larining yonbag'rlarida qurulishbop materilallarni olinishi sababli karyerlar hosil bo'lgan. Keyingi yillarda Qamashi va Dehqonobod hududlaridagi osh tuzlari zaxiralaridan ayrim joylarda foydalanila boshlaganligi sababli ham texnogen landshaftlar vujudga kela boshladi. Texnogen landshaftlarning tekisliklarda vujudga kelishi neft, gaz va gaz kondensati qazib olish bilan bog'liq.

Shunday qilib, Qashqadaryo havzasida turli tarixiy davrlarda inson o'zining ishlab chiqarish jarayonida tabiiy landshaftlarga ta'sir ko'rsatgan va turli xildagi antropogen landshaftlarning shakllanishiga imkoniyat tug'dirgan.

SMOLALAR OLISHNING TEXNOLOGIK KETMA-KETLIGINI O'RGANISH

Neft va tabiiy gaz kimyosi va texnologiyasi

Mutaxassisligi magistranti: Jo'rayeva M.


Ilmiy rahbar: E. Yakubov

Dastlab reaktor (PH=8 bo'lgan) ammiak eritmasi bilan to'ldiriladi. So'ngra aralashtirgich bilan aralashtirib turgan holda melamin solinadi. Melamin to'liq erib ketguncha butanol qo'shib aralashtiriladi. Gomogen eritma hosil bo'lgandan so'ng eritmaning ustiga furfurol qo'shiladi va aralashtiriladi. Bu vaqtda polikon-

densatlanish jarayoni sodir bo'ladi. Reaksiya ishqoriy sharoitda (NaOH katalizator) olib boriladi. Reaksiya suvsiz muhitda yoki ajralib chiqayotgan suv chiqarib turish bilan olib boriladi.

Smolalar ishqoriy muhitda suvda erib kley hosil qilishi mumkin. Kley tayyorlash vaqtida ajralib chiqayotgan suv reaksiyon muhitdan chiqarilmaydi. Polikondensatsiya reaksiyasi 65-75°C da 70-85 minut qizdiriladi. Bo'tanollangan smolada butil spirti eterifiksiya reaksiyasi natijasida OH guruhlar hisobiga birikadi. Natijada liofob kolloid holdagi smola liofil holatga o'tadi va smolaning eruvchanligi oshadi [1].

Bundan tashqari smolaning polimerlanishi to'xtaydi. Natijada polimerlanish darajasi kichik bo'lgan smolalar hosil bo'ladi va ularning eruvchanligi yuqori bo'ladi. Bunday smolalardan tayyorlangan lak, emal va bo'yoqlardan silliq, tekis va yupqa qatlamli qoplamalar hosil qilish mumkin. Melamin-furfurol smolasi quyidagi 2 bosqichli reaksiya mexanizmi asosida olib boriladi:



Reaksiya yuqori 85-90°C temperaturada qizdirilganda esa, narvonsimon tuzilishga ega bo'lgan, qiyin eruvchan melamin furfurol smolasi hosil bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda, atmosfera bosimida butanol solinadi va PH-5,5 kislotali muhitga keltiriladi. Reaksiyon aralashma 1 soat davomida 90°C da qizdirib, aralastirib turiladi. Hosil bo'lgan quyuq smola aralashmasi vakuumli quritgichga kiritiladi va 65°C da 86,6-98,6 KPa bosimda quritiladi. Bu texnologik jarayon natijasida quruq holdagi suvsiz smola olinadi.

Laboratoriya sharoitida smolalar olishning muqobil sharoitlari

№	Smolaning nomi	Sarflanadigan komponentlarning miqdori (mol).			Muqobil sharoiti	
		Amin yoki fenol	Aldegid	Erituvchi-bo'tanol	T ^o C	Vaqt (minut), ^o
1.	Melamin-formaldegid (bo'tanollangan)	1	4,2	2,5	65*/95**	90*/120**
2.	Melamin-furfurool (bo'tanollangan)	1	6	2	85*/95**	90*/120**

* - Monomerlarni polikondensatsiyalash temperaturasi va vaqti;

** - Smolaning etirifikatsiyalash temperaturasi va vaqti.

Sintez qilingan smolalar ksilol, dioksan va spirtlarda eriydi suvda erinmaydi.

Yuqori sifatli lak, emal hamda yelim va buyoqlar olish uchun olingan smolalarni turli xil qo'shimchalardan tozalash kerak bo'ladi. Reaksiyaga kirishmay qolgan melamin va furfuroolni xlorid kislotaning suvdagi eritmasi bilan dekantatsiya qilib tozalash mumkin[2].

Olingan smolalar asosan n-butanol bilan modifikatsiyalanadi. Bunda ularning mustahkamligi oshadi, organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Smolalarni poliefirlar, o'simlik yog'lari, quyi molekulyar spirtlar bilan modifikatsiyalash natijasida plastmassalar, aminoplastlar olish mumkin. Agar smolalar quyi molekulyar erituvchilar (metil, etil spirtlari) yordamida modifikatsiyalansa, suvda eriydigan smolalar hosil bo'ladi.

Adabiyotlar

1. М.Асқаров, Б.Ойхўжаев, А.Аловиддинов

Полимерлар химияси. Тошкент. "Ўқитувчи" 1991.

2. Алимов А.А. Получение и изучение свойств смол из местного сырья. Тез. докладов Республик, научно техн. конф. Ташкент. 1995.

12	<i>Abdinazarov S. Varqiyashvili A., Muradov I.</i>	Membranali gaz ajratish qurilmasi	45
13	<i>Бегулов О. Бабаджанова Н. Бабаджанов Ю.Т</i>	Вытекание воды из канала с наклонными стенками	48
14	<i>Маллаев А.</i>	Ешларга кенг имкониятлар!	52
15	<i>Носирова А. Рўзиев Б.</i>	Гельминтларнинг онтогенезида куруклик моллюскаларининг роли	55
16	<i>Омонов О.</i>	Хисор тоғ тизмасининг Ўзбекистон "Қизил китоб"ига киритилган эндем ва реликт тур ўсимликларининг камёблик даражаси	57
17	<i>Эшонқулов Э., Давронова Г.</i>	Қашқадарё хавзасининг халқ хўжалигида қўлланиладиган айрим ўсимлик турлари	62
18	<i>Quyutova M. Samatova Sh.A.</i>	Murakkabguldoshlar oilasi manzarali vakillarining qarshi vohasi sharoitida havo haroratiga munosa-bati	64
19	<i>Bo'ranova M.</i>	Dehqonobod tumani florasida soyabongul-doshlarning tutgan o'g'mi	66
20	<i>Насриддинова М.</i>	<i>MELISSA OFFICINALIS L.</i> ни вегетатив кўпайтиришга доир	68
21	<i>Халимов М.</i>	Хужайрадаги ҳаётий жараёнларнинг кечишида биомембраналарнинг роли	70
22	<i>Ernazarova Sh. Berdiyev J.</i>	Oltin qo'ng'izlar beda zararkunandasi	72
23	<i>Nazarov M., Murtazayev B., Abdullayev S.</i>	Qashqadaryo havzasida antropogen lanshaftlarning vujudga kelishi	74
24	<i>Jo'rayeva M. Yakubov E.</i>	Smolalar olishning texnologik kctma-ketligini o'rganish	78
25	<i>Буриев С. Ўутфуллаев С.</i>	Саноат газларидан қора қурум олиш ва ундан оқилона фойдаланиш	81
26	<i>Жабборов Ф. Ҳакимова Э.</i>	Этиленнинг винилацетат билан сополимерлари ва уларнинг композицияларини депрессор сифатида ишлати	82